

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH METODIKASINI TA‘LIM TRAYEKTORIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

A.I.Inatov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi
e-mail: inatov84abror@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning informatika fanlari doirasida kasbiy kompetentligini shakllantirishda mavjud innovatsion ta‘lim texnologiyalari, mazkur texnologiyalarni qo‘llash kasbiy kompetentlikni shakllantirish omili ekanligi, ularni qo‘llash metodikasini ta‘lim trayektoriyasi asosida takomillashtirishga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: informatika, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetentlik, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, ta‘lim trayektoriyasi.

Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta‘limning o‘rni katta. Sifatli ta‘lim olishning muhim shartlaridan biri o‘quv jarayonida kompyuter texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda talabning kasbiy layoqatini ro‘yobga chiqarishdir. Ayni globallashtirish davrida tahsil olayotgan talabalarning informatika fanlari doirasida kasbiy kompetentligini rivojlantirish yangicha yondashuvlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatmoqda hamda pedagoglarning o‘z ustida tinimsiz mehnat qilib, yangi metodikalarni yaratishlarini talab qilmoqda. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida sifatli kadr qilib tarbiyalashda yangi bilimlarni amalda qo‘llash yaxshi natija beradi.


Talabalarning informatika fanlari doirasida kasbiy kompetentligini shakllantirish o‘zlashtirgan bilimni amaliyotda qo‘llay bilishi, uni o‘z vaqtida mustahkamlashi, boshqa tushunchalarni o‘rganishda qo‘llay bilishi va olingan bilimlarni tizimlashtirishi ta‘lim samaradorligini ta‘minlashga olib keladi.

Informatika fanlari doirasida talabalarning bilish faoliyati deganda:


- mavzuga oid yangi ma‘lumotlarni izlash va ularni jam qilish;
- yig‘ilgan axborotlarni sintezlash;
- sintezlangan ma‘lumotlarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish.

Informatika fanlarini o‘zlashtirishning individual ta‘lim trayektoriyalarini loyihalashtirish metodikasini amalga oshirishni aniqlovchi tajriba davomida oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim beruvchi o‘qituvchilar «Amaliy informatika», «Ta‘limda axborot texnologiyalari», «Informatika o‘qitish metodikasi», «Tarmoq texnologiyalari», «Multimedia texnologiyalari» fanlarini o‘rganishning ta‘lim trayektoriyalarini ishlab chiqishlari taqozo etiladi.


«Amaliy informatika» fanini o‘rganishning quyidagi ta‘lim trayektoriyalarini taklif etamiz. Bunda mazmun blokini o‘zlashtirish uchun birinchi blok sifatida «Zamonaviy informatika va axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari» bloki tanlandi, bunga asosiy sabab mazmunni mantiqiy-didaktik tahlil qilish natijalari hamda matematika va informatika maktab kurslari uchun bilimlarni tizimlashtirish zarurati paydo bo‘lishidan iborat (1-3-rasm).



1-rasm. «Amaliy informatika» fanini o'rganishning 1-ta'lim trayektoriyasi




2-rasm. «Amaliy informatika» fanini o'rganishning 2-ta'lim trayektoriyasi



3-rasm. «Amaliy informatika» fanini o'rganishning 3-ta'lim trayektoriyasi


Informatika fanlari mazmunini mantiqiy va didaktik tahlil qilish faqat ularni yuqori kurslarda o'zlashtirilganda trayektoriya o'zgaruvchan bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi (pedagogika, predmetni o'qitish metodikasini o'rgangandan keyin). An'anaviy o'qitish tizimiga asosan Samarqand davlat universiteti uchun informatika fanlari sikli 1-2-kurslarda o'rganiladi, shuning uchun «Ta'limda axborot texnologiyalari» va «Informatika o'qitish metodikasi» fanlarini o'zlashtirish samaradorligiga psixologik-pedagogik va uslubiy bilimlar hamda kasbiy tayyorgarlikning propedevtik bosqichida kvazi-professional faoliyat tajribasini egallash orqali mazmun bloklarini ketma-ket o'zlashtirishga erishish mumkin [39; 134-b].

Endi yuqorida keltirib o'tilgan «Amaliy informatika» fanidan tashqari boshqa fanlarning ham ta'lim trayektoriyalarini keltirib o'tamiz. Quyida «Ta'limda axborot texnologiyalari» fanini o'zlashtirish trayektoriyasi keltirib o'tilgan (4-rasm).



4-rasm. «Ta'limda axborot texnologiyalari» fanni o'zlashtirish trayektoriyasi

Quyida uchinchi fan sifatida «Informatika o'qitish metodikasi» fanini o'zlashtirish trayektoriyasini ko'rsatib o'tamiz (5-rasm).



5-rasm. «**Informatika o'qitish metodlari**» fanni o'zlashtirish trayektoriyasi

Adabiyotlar

1. Chymak M., Khomych L., Nakonechna L., Kopchuk- Kashetska, M., & Zadoya, S. (2021). Individual Educational Trajectory as a Way to Reveal the Potential of a Future Teacher. Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala, 13(3), 387-400. <https://doi.org/10.18662/rrem/13.3/458>
2. Ibragimov A.A. Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020. - 80 bet.
3. Инатов А. «Методика составления траектории обучения предмета информатики с использованием инновационных технологий». // Международной научно-практической интернет-конференции «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации» 27 декабря 2022 года Вып. 89 с. 132-135.